



## TABIY FANLARNI O‘QITISHDA O‘QUVCHI EKOLOGIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

*Do‘stov S.*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
“Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

**Tayanch so‘zlar:** tafakkur, ekologiya, o‘quvchi, aholi, vosita, interfaol metodlar, pedagogik texnologiya, didaktik tamoyillar.

**Ключевые слова:** мышление, экология, студент, популяция, инструмент, интерактивные методы, педагогическая технология, дидактические принципы.

**Key words:** thinking, ecology, student, population, tool, interactive methods, pedagogical technology, didactic principles.

**Kirish.** Dunyoda tabiatni muhofaza qilish, ekologik ta‘lim-tarbiya masalalari Xalqaro hamjamiyatining umumiy global muammosiga aylandi. Ko‘zlangan maqsadga erishish yo‘lida ekologik ta‘lim-tarbiyaning jamiyat ma‘naviy hayoti bilan aloqadorligi, xususan, o‘quvchilarga tabiiy fanlarni o‘qitishda ekologik tafakkurni shakllantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy pedagogik amaliyot maktab ekologik ta‘limda o‘quvchilarning ijodiy qiziqishini rivojlantirish unda ekologik tafakkur, ong va umuman jamiyat madaniyatini shakllantirishga bo‘lgan aniq vazifalarni amalga oshirish, yangi g‘oyalar, usullar va yondashuvlarga asoslangan bo‘lishiga intilmoqda.

Ma‘lumki, o‘quvchilarga tabiiy fanlarni o‘rgatib borish bilan o‘qituvchi ularni ta‘limni davom ettirish va amaliy faoliyat uchun zarur bo‘lgan bilim, o‘quv va ko‘nikmalar bilan qurollantiribgina qolmay, balki ularning dunyoqarashi, irodasi, xarakterini shakllantiradi, aqliy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shunga ko‘ra tabiatshunoslikni o‘qitishning shakl va metodlarini ishlab chiqadi.

**Adabiyotlar tahlili:** Tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning ekologik tafakkurini shakllantirish masalasi nafaqat O‘zbekistonda, balki jahon miqyosida ham mutaxassis diqqatini o‘ziga jalb etgan. O‘zbekistonda o‘quvchilarning ekologik tafakkurini shakllantirish nazariyasi va metodikasi R.Sh.Aliyeva, A.Aliqulov, Sh.Avezov, A.M.Andumannopov, Y.B.Aydarov, S.S.Buxoriy, O.Bahodirov, O.Bo‘riyev, M.M.Xayrullayev, H.Hamidov, O.B.Gazibekov, U.Uvatov, E.O.Turdiqulov, S.To‘rayev, M.Qoriyev, A.Irisov, Z.Valiyev, N.Valixonov,

A.S.To‘xtayev, N.J.Isaqulova, A.Nigmatov, K.J.Nosirov, N.D.Mahmudov, A.S.Madrahimov, Sh.M.Mirzaahmedov, X.Rahmatova, T.Usmonov, D.To‘xliyev, T.Tilovov, K.J.Nosirov, O.Musurmanov, M.Rasulov, E.G‘oziyev va boshqalar tomonidan ekologik ta‘lim-tarbiya, ularning maqsad va vazifalari, mazmuni o‘rganilgan.

MDH davlatlari olimlari A.V.Brushlinskiy, L.S.Vigotskiy, A.Gorliyev, A.I.Gersena, P.Ya.Galperin, P.A.Gulyukina, C.L.Rubinshteyn, N.F.Talizina, O.K.Tixomirov, M.Yu.Gildenkov, T.Yu.Sakolova, M.A.Xolodnaya, G.A.Yagodin kabi olimlarning tadqiqot ishlarida ekologiya va ekologiyaning dolzarb muammolari ko‘tarilgan.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ekologiya ta‘limini ilmiy va nazariy jihatdan o‘rganish bo‘yicha Laleshvar Nand, Markus Arniy, Nina Rokzen, R.Harding, C.S.Haugen, Hsing Yun, Eugene Pleasants Odum, F.Stuart O.A.Plotnikova, Thomas E.Lovejoy va boshqalar tadqiqot ishlari olib borganlar.

Mazkur ilmiy-tadqiqot ishlarida, asosan, ekologik ta‘lim-tarbiyani rivojlantirish masalalari yoritilgan, ammo uzluksiz ta‘lim tizimining asosiy bo‘g‘ini hisoblangan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ekologik tafakkurini shakllantirish muammosi tadqiq qilinmagan.

**Tadqiqot materiallari va metodologiyasi.** Tushuncha-narsa va hodisalarning muhim xususiyatlari, aloqalari va munosabatlarini aks ettiruvchi tafakkur shakli. Tushuncha bilish mahsulidir, bu bilish oddiydan murakkabga ko‘tarila borib, tushunchalarni mukammallashtiradi, aniqlashtiradi va yangilarini shakllantiradi. Tushunchaning asosiy mantiqiy vazifasi biron narsani boshqa narsadan fikran ajratishdan iborat. Fanlarni turkumlarga ajratish va tabiiy fanlarni tushunchada umumlashtirish tabiat qonunlarini bilishning zarur shartidir. Har bir fan muayyan tushunchalar bilan ish ko‘radi, ularda bilimlar jamlanadi. Tushuncha hissiy bilish shakllaridan farq qilib, inson ongida to‘g‘ridan to‘g‘ri aks etmaydi. U taqqoslash, analiz, sintez, abstraksiyalash, umumlashtirish kabi mantiqiy usullardan foydalangan holda hosil qilinadi.

O‘quvchilarni tabiatsevar qilib tarbiyalashda, dastlab umumiy tarbiyaning o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalarini bilib olish lozim. Umumiy tarbiyani singdirishda tabiat elementlari, uning boyliklari, jonli va jonsiz tabiatni asrash nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, yoshlarni uning sir-asrorini to‘liq bilib olishga, o‘rganishga va ulardan oqilona foydalanishga o‘rgatishimiz kerak.

Atrofdagi olam bilan tanishish bo‘yicha materiallarni o‘rganishda o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ularning har taraflama yetuk shaxs bo‘lib rivojlanishi maqsadida ta‘limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar hal qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida: “Fuqarolar atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar” va 55-moddasida esa: “Er va yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralarni umumiy boyliklardir. Ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat mudofaasidadir” - deb juda o‘rinli ta‘kidlangan. Fuqarolarda ekologik



madaniyatni tarkib toptirish, ularga tabiat, atrof-muhit bilan qanday munosabatda bo'lishni o'rgatish ijtimoiy pedagogika nazariyasi va amaliyotining eng dolzarb mavzusiga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son, 2020-yil 29-oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-6097-son farmonlari, 2019-yil 20-fevraldagi "Yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, iqtidorli bolalarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish maqsadida "Prezident maktablarini ochish to'g'risida"gi PQ-4199-son qarorlari ham o'quvchilarning sifatli ta'lim olishlari, o'z bilim va tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bilamizki, ekologik muammolarning ilmiy, iqtisodiy, texnik, gigiyenik, yuridik, estetik, pedagogik va psixologik yo'nalishlari mavjud. Pedagogik yo'nalishda ekologik ta'lim va tarbiya berish ko'zda tutiladi. Ekologik ta'lim deganda, aholiga berilishi lozim bo'lgan tabiat bilan inson orasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimi tushuniladi. Ekologik tarbiya esa insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatini tarbiyalashdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik savodxonlik va madaniyat ta'lim-tarbiya muassasalari va oilada amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ekologik tarbiya berishda milliy xususiyat va tomonlarga asosiy e'tiborni qaratish lozim. O'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish, tabiat, atrof-muhit bilan qanday munosabatda bo'lishni o'rgatish pedagogika nazariyasi va amaliyotida dolzarb muammoga aylandi. Ayniqsa, umumta'lim maktablarida maktab partasidanoq tabiatga muhabbat ruhida tarbiya berishga astoydil kirishish zarur.

Ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya berish mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- atrof-muhit va uning shaxs ma'naviy dunyosiga ta'siri;
- tabiat va uning ahamiyatini anglash;
- tabiatga muhabbatni shakllantirishda maktab va oilaning hamkorligi;
- o'z tumani, shaharini, qishloq va maktab hovlisini ko'kalamzorlashtirishda, hatto sinf xonasidagi o'simliklarni ham parvarishlashga qiziqtirish;
- oiladagi, maktabdagi tabiatni, o'simliklar va hayvonot dunyosini e'zozlashga o'rgatish, jonivor va qushlarni parvarish qilish;
- yoshlarni ekologik tarbiyalashda milliy an'ana va udumlarni qayta tiklash, ularga e'tiborni kuchaytirish.

Maktab o'quvchilari ekologik tarbiya jarayonida quyidagilarni bilishlari zarur:

- tabiat haqida tushuncha, tabiiy muhit, tabiiy omillar va ular orasidagi bog‘lanish;
- tabiat boyliklaridan tejab-tergab foydalanish va ularni muhofaza qilish;
- atrof-muhitni ifloslantirishdan saqlash;
- tabiatni kelajak avlodlar uchun tabiiy holda qoldirishga intilish. Shu sababli, YuNESKO va YuNESEF xalqaro tashkilotlari Yer aholisining ekologik ta’lim mazmuni va muddatlarini qayta ko‘rib chiqish zarurligi masalasini ko‘tarmoqda.

**Tahlil va natija.** Ekologik zarar inson yashaydigan muhit sifatining yomonlashishidir. Inson uzoq vaqtlargacha tabiatga bitmas-tuganmas manba sifatida qarab kelgan, lekin o‘zi tabiatga ta’sir etishining salbiy natijalariga duch kelib, u asta-sekin tabiatdan oqilona foydalanish va muhofaza qilishning zarurligi haqida ishonch hosil qila boshladi. XIX asrning oxiri XX asrning boshida inson faoliyatida tabiatni muhofaza qilish haqidagi tasavvur faqat ayrim hayvon va o‘simlik turlarini, noyob ob’ektlarini muhofaza qilishnigina o‘z ichiga olar edi.

Tabiatni muhofaza qilish faqat biologik muammo deb qaralar edi. Tabiatni muhofaza qilishning aniq vazifalaridan biri tabiatni o‘zgartirish oqibatlarini va salbiy natijalarining oldini olish yo‘llarini aniqlashdan iboratdir. Tabiiy majmualarini har taraflama va chuqur o‘rganmasdan, ularning komponentlari o‘rtasidagi aloqalarini aniqlamasdan va hisobga olmasdan tabiatni muhofaza qilishdek murakkab vazifani amalga oshirish mumkin emas.

Demak, tabiatni muhofaza qilishning hozirgi asosiy vazifalari – tabiiy zaxiralarni muhofaza qilish, qayta ishlab chiqarishni tashkil etish, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni ifloslanishdan saqlashdan iboratdir. Dunyoda yuzaga kelgan qator tendentsiyalar ta’lim-tarbiya jarayonida ommaviy axborot vositalaridan foydalanish o‘zgacha tus olishiga sabab bo‘lmoqda. Mamlakatimizda maktabgacha yoshidagi bolalarni tabiatga oid bilimini ommaviy axborot vositalari asosida shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish masalasiga dolzarb muammo sifatida qaralmoqda.

Ma’lumki, to‘rtinchi sinf o‘quvchilariga “Tabiatshunoslik” fanini o‘qitishda ekologik tafakkurni rivojlantirishda shaxs sifatida rivojlantirish va uning tabiatga oid bilimi va dunyoqarashini innovatsion axborot texnologiyalari, axborot-kommunikatsion texnologiyalari hamda ommaviy axborot vositalari asosida shakllantirish tizimiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda axborot sohasida ham jiddiy islohotlar amalga oshirildi.

Axborotlashtirishning milliy tizimi yaratildi, zamonaviy axborot texnologiyalari va ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotidagi o‘rni kuchaytirildi, fuqarolarning axborotlarga bo‘lgan ehtiyojlari to‘laroq qondirila boshlandi, jahon axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlari kengaydi. Ayni payt ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlaridan to‘rtinchi sinf o‘quvchilariga “Tabiiy fanlar” faniga oid bilimlarini shakllantirishda foydalanishni taqozo qilmoqda.



To'rtinchi sinf o'quvchilarda "Tabiatshunoslik" fani tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning boshlang'ich ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash pedagog va mutaxassislarning malaka darajalarini yuksaltirish masalalari O'zbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish borasida Harakatlar Strategiyasining ustuvor yo'nalishlariga muvofiq maktabgacha ta'lim muassasalarini tubdan rivojlantirishning asosiy vazifalari sifatida belgilandi.

Hozirgi vaqtda ekologik madaniyatni shaxsning ijtimoiy zarur axloqiy sifati sifatida shakllantirish haqida gapirish kerak. "Ekologiya" atamasi 1966-yilda Ernest Gekkel tomonidan taklif qilingan bo'lib, u tirik organizmlarning yashash sharoitlarini atrof-muhit bilan bog'liq holda o'rganadigan fandir. A.N. Zaxlebniy, I.T.Suraveginaning fikricha, ekologik ta'lim tabiatdan foydalanish tamoyillarini odamlar ongi va faoliyatida tasdiqlashdir. Yanayam aniqroq aytadigan bo'lsak, atrof-muhit va inson salomatligiga zarar yetkazmasdan muayyan iqtisodiy va ekologik muammolarni hal qilish ko'nikma va malakalarini shakllantirish. U insonning ajralmas xususiyatlaridan biri bo'lib, uning hayot yo'nalishini belgilaydi, dunyoqarashida o'z izini qoldiradi. Bu borada maktabning o'rni beqiyosdir.

Barchamizga ma'lumki, maktab ta'limi o'quvchi hayotining muhim bir bosqichidir. Bu pallada u shaxs bo'lib shakllana boshlaydi. Ana shu jarayonlarni to'g'ri yo'lga qo'yishda boshlang'ich sinf o'qituvchilari muhim ahamiyat kasb etadi. Ulardan bu borada kuchli mas'uliyat, salohiyat va bilim talab qilinadi. Buning uchun boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarga tabiatni asrab-avaylash, uning manbalaridan oqilona foydalanish, odam va uning salomatligiga doir tushunchalar, foydali qazilmalar va ularning davlat iqtisodiga ta'siri kabi tushunchalar berish uchun dars soatlari ajratilgan. O'rgatiladigan bilim va tushunchalar o'quvchilarda tabiat va uning boyliklariga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirishi lozim.

Xususan, boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarga ekologik tarbiya berish, ularning tafakkurini shakllantirishda o'zaro ta'sirni amalga oshiruvchi omillardan biri o'quvchilarni ta'lim jarayonida ijodiy ta'sir ko'rsatishga motivlashtirish hisoblanadi. Ayrim tadqiqotchilarning ta'kidlashiga ko'ra, insonning o'zi tomonidan mustaqil ravishda egallangan tushunchalari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu mustaqil ta'lim jarayonida, ya'ni o'quvchiga o'qituvchi tomonidan an'anaviy ravishda o'rgatilmaganda, mustaqil fikrlash jarayonida vujudga keladi, mazkur jarayonda muhokama qilinayotgan muammoning mazmun va mohiyati tushuniladi va tahlil qilinadi, refleksiv faoliyat amalga oshadi.

Bizning fikrimizcha, tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarga ekologik tarbiya berish, ularning tafakkurini shakllantirishda ijodiy ta'sir ko'rsatishga motivlashtirish ularning faolligini ta'minlashga xizmat qiladi, o'z navbatida ijodiy faollik ham o'zaro ta'sirini amalga oshiruvchi omillardan biri hisoblanadi.

Natijada esa o'quvchilarning ichki imkoniyatlari, yangi qirralari ochiladi. Shu bilan bir qatorda, ularda mustaqil ishlash ko'nikmalari rivojlanadi, o'z-o'ziga ishonch hissi ortadi, fanni o'rganishga bo'lgan qiziqish kuchayadi, ijodiy fikrlash qobiliyati shakllanadi, kelajakdagi o'z hayotiy faoliyatiga tayorlanishi uchun rag'bat hosil bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarga ekologik tarbiya berish, ularning tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish vositalaridan biri – ular faoliyat ko'rsatayotgan va yashayotgan muhit bo'lib, bu o'quvchilarda ilk tushunchalarni shakllantirish jarayoni sub'ektlarining o'zaro ta'sirini amalga oshiruvchi tashqi omillardan biri hisoblanadi. Bunday ta'lim-tarbiyaviy muhitda o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi ishtirokchilarning suhbat va o'quvchining o'zini o'zi rivojlantirishi asosida tafakkurning rivojlanish jarayonlari vujudga keladi, mazkur omil ota-onalar va jamiyatning zamonaviy talablari ta'siri ostida bo'ladi. O'quvchilarga tabiiy fanlarni o'qitishda ilk tushunchalarni shakllantirish jarayonida hamkorlikdagi ijodiy faoliyat qulay innovatsion muhitni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Boisi maktabda o'qishning birinchi yilida bolalar atrof olam bilan tanishish o'quv kitobidan ertak va hikoyalarni o'qish, tabiatdagi kuzatishlar asosida o'simlik va hayvon organizmlari to'g'risida umumiy oddiy tabiatshunoslik tushunchalarini oladilar. Kelgusi sinflarda ular tajribalar o'tkazishda, kuzatishlar, ekskursiyalar, amaliy ishlar vaqtida tabiat to'g'risidagi konkret tushunchalarga ega bo'ladilar.

Umumiy tushunchalarni shakllantirishda o'qituvchi:

- ob'ektlarni maqsadga yo'nalgan holda qabul qilib olinishli tashkil qilishi;
- tabiat jismlari va hodisalari to'g'risida har bir yangi tushunchani tahlil qilishi va barcha narsalarda, ilgari o'zlashtirilganlarda takrorlanadigan muhim belgilarni ajratishi; ikkinchi darajali uncha muhim bo'lmagan barcha belgilarni mavhumlashtirish, buning uchun uncha muhim bo'lmagan turlanadigan belgisi, lekin muhim belgilarini saqlagan narsalardan foydalanish lozim.

Agar umumiy tushunchalar atamalar bilan mustahkamlansa, yakka tushuncha nomlar yoki shaxsiy ism bilan ifodalanadi, chunki uning nomida boshqa ob'ekt bo'lmaydi. Yakka tushunchalarini shakllantira borib, umumiy tushunchani ochishga alohida e'tibor berish lozim. Tabiatshunoslik darslarida yakka tushunchalardan tashqari yig'ma tushunchalar ham shakllanadi. Ular umumiy belgilarga ega bo'lgan yakka tushunchalardan tarkib topadi. Yig'ma tushunchalarga kiradigan har bir yakka tushuncha o'zining individual xususiyatini saqlaydi.

Tabiatshunoslik tushunchalari bevosita qabul qilish – kuzatishlarga asoslanib, o'rganilayotgan narsa yoki hodisa to'g'risida aniq va ravshan tasavvur hosil qilingan sharoitda to'g'ri bo'lishi mumkin. Tushunchani birlamchi tarzda hosil bo'lishida ob'yektlar va ko'rgazma materialning har xil turlari katta ahamiyatga egadir.

O'quvchilar tafakkurini rivojlantirmasdan, ularni fikrlash ishiga jalb qilmasdan turib tushunchalarning o'zlashtirilishiga erishish mumkin emas. Tabiiy fanlar tushunchalarni o'zlashtirishda fanlararo bog'lanishlar katta ahamiyatga ega.



Fanlararo aloqalardan muntazam ravishda foydalanish bolalarning ilgari olingan bilimlarni qoʻllanishiga, oʻquv faoliyatning barcha turlaridan mantiqiy bogʻlanish oʻrnatishga oʻrgatadi.

Oʻqituvchi tushunchalar tarkibini bilib, ularni tashkil qiluvchi elementlari boʻyicha oʻquvchilar bilimini obʻektiv baholashi mumkin. Tushunchalarni oʻzlashtirishning qadrini bilish oʻqituvchiga oʻqitishning borishini fahmlashga, bilimni oʻzlashtirish jarayoniga toʻgʻri rahbarlik qilishga yordam beradi. Tushunchalarni ajratib oʻqituvchi tegishli metodik uslublarni tanlaydi va qoʻllanadi.

**Xulosa.** Shunday qilib, oʻquv dasturiga kiritilgan muayyan mavzular boʻyicha tabiiy fanlarni oʻqitishda oʻquvchi ekologik tafakkurini shakllantirishda darslarni zamonaviy taʼlim texnologiyalari asosida tashkil etish ijobiy natijalarni beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Allayorov R.X., Abduxalikov Q.A., Ergashboyeva M.T., Usmonxoʻjayeva M.A., "Geografiya va geografiya taʼlimidagi muammolari" Konferentsiya, Nizomiy nomidagi TDPU, Toshkent-2018.
2. Hamidov H., Hodjimatomov A. va boshqalar. "Ekologik madaniyat va maʼnaviyat". T., ZUXRA BARAKA BIZNES, 2018.
3. Ibragimova N.A. Ekologik xavfsizlikni taʼminlash tizimining institutsional va funksional integratsiyasi: pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent, 2018. - 138 b.
4. Koʻchkinov A.Yu. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarini ekologik tarbiyalash texnologiyalari: diss..... pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD). -T., 2021. -147 b.
5. Karimjonov A., Ochilov F.I. Boshlangʻich sinflarda taʼlim-tarbiya muammolari. Oʻquv-uslubiy qoʻllanma. -Toshkent: Firdavs-Shoh, 2021. - 204 b.
6. Norboʻtayev X.B. Boshlangʻich sinflarda tabiiy fanlarni oʻqitishda ekologik tafakkurni takomillashtirish. // International Multidisciplinary Conference// Hosted from Manchester, England 25th jan, 2023.
7. Doʻstov S. "IV sinfda "Tabiatshunoslik" fani doirasida oʻquvchi ekologik tafakkurini shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanish". Taʼlim, fan va innovatsiya, 3-son, 2023-yil, ISSN 2181-8274, 378-381-betlar.

#### РЕЗЮМЕ

Taʼlim jarayoni oʻquvchilarning bilim olish, koʻnikma va malakalarni egallash, ularning ilmiy dunyoqarashi, ijodiy izlanishlarini rivojlantirish maqsadiga yoʻgʻrilgan oʻqituvchi va oʻquvchilarning oʻzaro hamkorligi sanalishi, taʼlim mazmunining oʻqitish metodlari yordamida oʻzlashtirilishiga erishish. Mazkur maqolada boshlangʻich taʼlimda oʻquvchilarning ekologik tafakkurini rivojlantirish yoʻllari, boshlangʻich sinflarda foydalanish mumkin boʻlgan innovatsion texnologiyalarning didaktik tamoyillari, dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati haqida maʼlumot beriladi.

#### РЕЗЮМЕ

Образовательный процесс рассматривается как взаимное сотрудничество преподавателя и учащихся, направленное на приобретение знаний, приобретение навыков и квалификации, развитие их научного мировоззрения, творческих исследований, преподавание содержания образования, достижение мастерства с помощью методов. В данной статье представлена информация о способах развития экологического мышления учащихся в начальной школе, дидактических принципах инновационных технологий, которые могут быть использованы в начальных классах, а также о важности использования интерактивных методов в ходе урока.

#### SUMMARY

The educational process is considered to be the mutual cooperation of the teacher and students aimed at acquiring knowledge, acquiring skills and qualifications, developing their scientific worldview, creative research, and teaching the content of education. To achieve mastery with the help of methods. This article provides information on ways to develop students' ecological thinking in primary education, didactic principles of innovative technologies that can be used in primary classes, and the importance of using interactive methods in the course of the lesson.